

KOMPYUTER DASTURLARINING INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари SIFATIDAGI KLASSIFIKATSIYASI VA HUQUQIY HIMOYANING UMUMIY PRINSIPLARI

Usmonbek Otabayev

usmonbekotaboyev1109@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Intellectual mulk va axborot texnologiyalari huquqi
mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15636709>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompyuter dasturlarining intellektual mulk obyekti sifatidagi huquqiy maqomi va ularni himoya qilish prinsiplari tahlil qilingan. Muallif dasturlarni adabiy asar sifatida mualliflik huquqi bilan himoya qilish zarurligini xalqaro va milliy qonunchilik asosida asoslab bergan. Shuningdek, patent huquqi va tijorat siri kabi muqobil himoya usullari, interfeys va algoritmlarning huquqiy holati, shaxsiy va mulkiy huquqlar, hududiylik va muddatlilik prinsiplari yoritilgan. Maqolada amaliy muammolar bilan bir qatorda nazariy bahslar ham ko'rib chiqilgan hamda zamonaviy yondashuvlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter dasturi, mualliflik huquqi, intellektual mulk, interfeys, patent huquqi, tijorat siri, algoritmi, Bern konvensiyasi, TRIPS bitimi, dastur kodi, funksional yechim, dasturiy mahsulot, xizmat dasturi, muallif huquqi, ijodiy asar, dastur interfeysi, huquqiy maqom, kod himoyasi, nou-xau, milliy qonunchilik, shaxsiy huquq, mulkiy huquq, litsenziya shartnomasi, ifoda va g'oya, xizmat vazifasi, dasturchi huquqi, texnik g'oya, dastur tasnifi, xalqaro huquq, dastur himoyasi.

Kompyuter dasturlari zamonaviy intellektual mulk huquqining muhim obyektlaridan biriga aylangan. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida dasturlar deyarli barcha sohalarda qo'llanilmoqda va ularsiz ko'plab texnologik jarayonlarni tasavvur etib bo'lmaydi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, kompyuter dasturlari intellektual mulk obyektlari orasida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan nisbatan "yosh" obyekt hisoblanadi. Ya'ni, ular fuqarolik huquqida an'anaviy asarlar qatoriga nisbatan kechroq paydo bo'lgan va faqat axborot texnologiyalari davriga kelib alohida huquqiy maqomga ega bo'lgan. Shunga qaramay, bugungi kunda dasturiy ta'minot mahsulotlari katta iqtisodiy ahamiyat kasb etib, nafaqat biznes muhitida balki davlat boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot va kundalik hayotda ham beqiyos rol o'ynamoqda.


Zamonaviy jamiyatda kompyuter dasturlari texnologik taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida tobora keng ahamiyat kasb etmoqda. Bu dasturlar turli sohalarda – iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim, mudofaa, xizmat ko'rsatish va boshqa yo'nalishlarda faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday dasturiy vositalar mualliflarining ijodiy mehnati mahsuli sifatida e'tirof etilishi, ularga nisbatan huquqiy himoya vositalarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Kompyuter dasturlarining huquqiy maqomini aniqlash, ularni himoya qilish shakllari va mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda global darajadagi dolzarb masalaga aylangan.

Kompyuter dasturlarini intellektual mulk sifatida huquqiy himoya qilish – raqamli davrda innovatsion taraqqiyot va iqtisodiy yuksalishning muhim omillaridan biridir. O'zbekiston bu borada mustahkam qonunchilik asoslarini yaratganiga qaramay, amaliyotda yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Intellektual mulk muhofazasi kuchayishi esa, shubhasiz, milliy IT-industriya rivojini rag'batlantiradi, xorijiy investitsiyalar uchun qulay innovatsion muhitni shakllantiradi.

Asosiy qism

Intellektual mulk obyektlarining tasnifi nuqtai nazaridan, kompyuter dasturlarining huquqiy tabiati ilmiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlarga sabab bo'lgan. Umuman olganda, intellektual mulk obyektlari odatda ikki katta turkumga bo'linadi: mualliflik huquqi obyektlari (adabiyot, san'at va ilmiy asarlar) va sanoat mulki obyektlari (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi va h.k.). An'anaviy yondashuvga ko'ra, kompyuter dasturlari mualliflik huquqi obyektlari toifasiga kiritiladi. Jumladan, xalqaro me'yoriy hujjatlardan biri bo'lmish Butunjahon intellektual mulk tashkiloti homiyligida tuzilgan 1994-yilgi TRIPS Bitimining 10-moddasida kompyuter dasturlari adabiy asar sifatida mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi shartligi qat'iy belgilangan. Ya'ni, dasturiy ta'minotning manba kodi ham, bajariladigan (obyekt) kodi ham Bern konvensiyasiga muvofiq adabiy asar sifatida qaraladi va ularga nisbatan aynan adabiy asarlar uchun nazarda tutilgan huquqiy muhofaza rejimi tatbiq etiladi.

Xuddi shu prinsip milliy qonunchiliklarda ham aks etgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasida 1994-yil 6-mayda qabul qilingan "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonun 3-moddasida kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari mualliflik huquqi obyektlari ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Ya'ni "Kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari ushbu Qonun



orqali mualliflik huquqi obyektlari jumlasiga kiradi” deb ko’rsatilgan. Ushbu qonunga muvofiq, har qanday kompyuter dasturi ijodiy mehnat mahsuli sifatida yaratilgan bo’lsa, uning obyektiv shaklda ifodalangan kodi mualliflik huquqi bilan himoya qilinadi. Qonunda ochiq-oydin aytilishicha, dasturlar har qanday tilda yozilgan dastlabki matn (manba kod) yoki mashina kodidagi obyekt matni ko’rinishida bo’lishidan qat’i nazar, mualliflik huquqi asosi sifatida qabul qilinadi. Shu tariqa, O’zbekiston va ko’plab boshqa davlatlar qonunchiligida kompyuter dasturi “adabiy asar” turkumiga mansub mulkiy huquq obyekti sifatida e’tirof etilgan.

Biroq, kompyuter dasturlarining bunday huquqiy tasnifi (ya’ni ularni adabiy asar deb talqin qilish) ayrim ilmiy qarashlarda muhokamalarga sabab bo’lgan. Olimlar dasturlar odatiy badiiy yoki adabiy asarlardan anchayin farq qilishini ta’kidlashadi. Xususan, rossiyalik olim A.P. Losevaning fikricha, kompyuter dasturi “noan’anaviy mualliflik huquqi obyekti” bo’lib, uning mazmun-mohiyati texnik va funksional xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Adabiy asarlarda (masalan, biror hikoya yoki romanda) ijodiy g’oya asar syujetida va badiiy ifodasida namoyon bo’lsa, dasturiy mahsulotda dasturchining ijodiy mehnati ko’p hollarda bevosita ko’zlangan amaliy vazifaga bo’ysungan bo’ladi. Ya’ni, dasturchi ko’pincha estetik obraz yaratishdan ko’ra, muayyan texnik masalani hal etishga yo’naltirilgan kod yozadi. Shu bois dasturlarni mualliflik huquqi asari deb atash shartli tusga ega ekanini qayd etuvchi yondashuvlar mavjud. Ba’zi yuristlar fikricha, kompyuter dasturi ikki “tabiat”ga ega: bir tomondan, u ijodiy asar (kod matni muallifning original ifodasidir), boshqa tomondan u funktsional yechimlar majmui bo’lib, algoritmik mazmun va texnik g’oyani o’z ichiga oladi.

Shunday ikki xil xususiyat tufayli dasturlarni huquqiy jihatdan qaysi toifaga mansub ekani borasida ilmiy adabiyotda turli qarashlar mavjud. Asosiy oqim, yuqorida ta’kidlanganidek, dasturlarni mualliflik huquqi bilan muhofaza qilish lozimligini e’tirof etsa, ayrim mutaxassislar dasturlar uchun patent-huquqiy muhofaza yoki sui generis (o’ziga xos) muhofaza rejimini qo’llash g’oyasini ham ilgari surganlar. Masalan, dasturiy ta’minotning ayrim tarkibiy qismlari – foydalanuvchi interfeysi (dastur grafik interfeysi) – ustidan mualliflik huquqini tatbiq etish qanchalik o’rinli ekani bo’yicha bahslar mavjud. Q.M. Mehmonov va boshqa bir qator o’zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida interfeys ham dasturiy mahsulotning ajralmas qismi bo’lib, u yozilgan kod orqali namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. Ular interfeysni dastur bilan birga yagona mualliflik obyekti sifatida ko’rib, alohida himoya qilmaslik kerak, deb hisoblashadi. Boshqa bir guruh

tadqiqotchilar esa, aksincha, dastur interfeysi dizayni va tuzilmasini mualliflik huquqi bilan emas, balki sanoat mulkiga oid vositalar yoki maxsus (“sui generis”) qonunchilik vositalari orqali himoya qilish maqsadga muvofiq, degan fikrni bildirgan. Xususan, ukrainalik olim B. Semenyutenko interfeysni himoya qilish uchun hozirgi qo‘llanilmayotgan maxsus huquqiy rejimlar yoki sui generis qoidalari kerakligini ta’kidlaydi. Bu qarashlar shuni ko‘rsatadiki, kompyuter dasturining turli elementlarini huquqiy tasniflash masalasi (ularning mualliflik obyekti doirasida yoki undan tashqarida ko‘rilishi) dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etilgan.

Umuman olganda, bugungi kunga kelib xalqaro hamjamiyat va aksariyat milliy qonunchiliklarda kompyuter dasturlari asosan mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan ijodiy asarlar sifatida tan olinadi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunida ham kompyuter dasturlari adabiy asarlar qatorida mualliflik huquqi obyekti sifatida tilga olingan. Shu bilan birga, dasturiy mahsulotlarning yuqorida bayon etilgan o‘ziga xos jihatlari ularning huquqiy muhofazasiga nisbatan maxsus yondashuv va prinsiplarga ehtiyoj tug‘diradi.


Intellectual mulk huquqini tartibga soluvchi umumiy prinsiplardan kelib chiqib, kompyuter dasturlarining himoyasi ham boshqa ijodiy asarlar singari bir qator tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, kompyuter dasturi – ijodiy faoliyat mahsuli ekani tan olinadi. Bu degani, muallif (dasturchi) tomonidan yozilgan dastur kodi ijodiy asar sifatida qaraladi va unga nisbatan mualliflik huquqi avtomatik tarzda vujudga keladi. Mualliflik huquqining umumiy qoidasiga muvofiq, dastur yaratilishi bilan muallif unga bo‘lgan huquqlarga ega bo‘ladi – buning uchun hech qanday ro‘yxatdan o‘tkazish, maxsus patent olish yoki boshqa rasmiyatchilik talab etilmaydi. Masalan, mualliflik huquqi bo‘yicha adabiyotlarda dasturchi har bir yozgan dasturiga nisbatan o‘zi yozgan zahotiy oq mualliflik huquqiga ega bo‘lishi, buning uchun alohida ariza topshirish yoki davlat organidan ruxsat olish shart emasligi alohida qayd etiladi. Bu prinsip Bern konvensiyasining 5-moddasida mustahkamlangan “rasmiyatchiliklarsiz himoya” qoidasiga ham mos hisoblanadi va bunda ijodiy asar yaratilishi bilan avtomatik ravishda muhofaza huquqi vujudga keladi.

Mualliflik huquqi doirasida dasturga nisbatan muallifning mutlaq huquqi vujudga keladi. Ya’ni, dastur muallifi (yoki huquq egasi) uni o‘z xohishiga ko‘ra har qanday shaklda va usulda foydalanish huquqini qo‘lga kiritadi. Boshqa shaxslar dasturdan muallif ruxsatisiz foydalanishi taqiqlanadi – bu intellektual mulk obyektlarining mutlaq huquqiy xarakteridadir. Muallif o‘z dasturini

ko'paytirish (nusxa olish), tarqatish, ijro etish (masalan, dasturdan jamoatchilikka foydalanish uchun vosita sifatida xizmat qilish) kabi huquqlarga ega bo'ladi. Ushbu mulkiy huquqlarni muallif boshqa shaxslarga shartnoma asosida berishi (litsenziyalashi) yoki butunlay o'tkazishi mumkin. Dasturlarni tarqatishda amaliyotda litsenziya shartnomalari tuziladi – bunda muallif (yoki egasi) foydalanuvchiga dasturdan ma'lum shartlar asosida foydalanish huquqini beradi.

Intellectual mulk obyektlariga xos xususiyatlar kompyuter dasturlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Fuqarolik huquqi nazariyasida intellektual mulk obyektlari moddiy buyumlardan farq qiluvchi bir qator xususiyatlarga ega ekani ta'kidlanadi. Jumladan: a) ko'p hollarda ular moddiy shaklda mavjud emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi; b) bunday obyektga oddiy moddiy mulkdek egalik qilib bo'lmaydi, ya'ni bir vaqtda cheksiz doirada bir nechta shaxslar undan foydalana olishi mumkin; v) intellektual mulk huquqi obyekti doimiy emas – u muddati cheklangan huquqiy muhofaza doirasidadir. Darhaqiqat, odatdagi mulk huquqi (masalan, jismoniy buyumlarga egalik) muddatsiz bo'lsa-da, mualliflik huquqi va umuman intellektual mulk huquqi obyektlari qonunda belgilangan muayyan muddat davomida himoya qilinadi. O'zbekiston qonunchiligida ham mualliflik huquqi muddati muallif umrining oxirigacha va vafotidan keyin 50 yil bilan cheklangan. Shu muddat o'tishi bilan dastur jamoa mulkiga (public domain) aylanishi, ya'ni uni istalgan shaxs muallif nomini ko'rsatgan holda erkin foydalanishi mumkin bo'ladi. g) Shuningdek, intellektual mulk obyektlari, jumladan dasturlar ustidan mulkiy da'volarni (masalan, vindikatsiya da'vosini) qo'llab bo'lmaydi, chunki ular moddiy buyum emas. ye) Intellektual mulk obyektlariga nisbatan hududiylik prinsipi amal qiladi – ya'ni huquq faqat muayyan hududda o'z kuchini ko'rsatadi. Masalan, biror dastur mualliflik huquqi O'zbekistonda himoya qilinsa, bu huquq faqat O'zbekiston hududida ta'minlanadi; boshqa davlatlarda himoya milliy qonunchilik va xalqaro bitimlar asosida alohida ta'minlanmog'i lozim bo'ladi. Shu bois dastur yaratuvchilari o'z asarlarini xalqaro miqyosda himoya qilish uchun Bern konvensiyasi va mualliflik huquqiga oid boshqa shartnomalarga tayanadi.

Muallifning shaxsiy huquqlari ham kompyuter dasturlariga nisbatan saqlanadi. Odatda, intellektual mulk obyektlarining mualliflarida mulkiy huquqlar bilan bir qatorda shaxsiy (nomulkiy) huquqlar mavjud bo'ladi. Dastur muallifi ham o'zining muallif ekanligini tan oldirish (mualliflikni e'tirof ettirish) huquqiga dasturga nom berish huquqiga va o'z asarini buzib ko'rsatilishiga



qarshi chiqish kabi shaxsiy huquqlarga ega. Bu huquqlar odatda begonalashtirilmaydi va muddatsiz muhofaza qilinadi – hatto dastur jamoat mulkiga o'tganidan keyin ham mualliflik va nom huquqi saqlanadi.

Kompyuter dasturlarini huquqiy himoya qilishda yana bir muhim tamoyil – “g'oya va ifoda” (idea-expression) farqlanishi qoidasidir. Mualliflik huquqi faqat asarning ifoda shaklini himoya qiladi, lekin uning ortidagi g'oyalar, usullar, algoritmlar, kashfiyotlar himoya doirasiga kirmaydi. Bu prinsip kompyuter dasturlari uchun ayniqsa dolzarb: qonunchilikda dastur kodi muhofaza qilinishi, ammo dastur ishlashiga asos bo'lgan ilmiy-texnik g'oyalar, algoritmik yechimlar, matematik tamoyillar mualliflik huquqi bilan to'sib bo'lmasligi qayd etilgan. O'zbekiston yuqorida zikr etilgan 1994-yilgi qonunida aniq belgilanishicha, kompyuter dasturi yoki ma'lumotlar bazasining yaratilishiga asos bo'lgan g'oyalar, tamoyillar, algoritmlar, kashfiyotlar, matematik tushunchalar mualliflik huquqi obyekti hisoblanmaydi. Xususan, dastur interfeysi yoki algoritmik tuzilmasi g'oyasi, dasturlash tili yoki matematik usullar – bular muhofaza qilinmaydigan qismlardir. Bu qoida mualliflik huquqining fundamental tamoyillaridan biri bo'lib, uning maqsadi – ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan g'oyalar erkin almashinuvini saqlash, faqat ularning aniq va original ifodalanishigina mualliflik himoyasiga olishdir. Shu bois, biror dastur kodini boshqa mustaqil dasturchi g'oyadan foydalangan holda, lekin mutlaqo mustaqil tarzda yozsa, u asl mualliflik huquqini buzmagani hisoblanadi – zero faqat nusxa ko'chirish (ko'chirib olish) huquqbuzarlikka olib keladi, g'oyani qo'llash esa taqiqlanmaydi.

Kompyuter dasturlarining huquqiy muhofazasida ularga xos bo'lgan yana bir jihat – patent-huquqiy muhofaza cheklanganligi. Umumiy qoida bo'yicha, dasturlar patentlanmaydi, chunki ularni patentlash algoritm yoki matematik usulni patentlashga teng keladi, bu esa ko'plab mamlakatlarda taqiqlangan. Masalan, AQSh Oliy sudi

1972-yildagi *Gottschalk v. Benson* ishida kompyuter dasturini (aniqrog'i, algoritmik usulni) patentlash mumkin emasligi haqida qaror chiqargan – sud dasturiy algoritmni patentlash “matematik formulani patentlash bilan barobar” ekanini ta'kidladi. Bu qaror natijasida nafaqat AQShda, balki boshqa ko'plab yurisdiksiyalarda ham sof dasturlarni patentlashdan tiyilish kuzatildi. Albatta, ayrim davlatlar yoki mintaqaviy patent tizimlarida dasturiy ixtirolarga patent berish imkoniyati cheklangan tarzda mavjud (masalan, Yevropa patent tizimida “kompyuter-amlashgan ixtiro” konsepsiyasi orqali dastur apparat bilan bog'liq texnik yechimning qismi bo'lsa, patent berilishi mumkin). Ammo keng ma'noda,



dasturiy ta'minotning o'zi patent obyektiga emas, uning huquqiy himoyasi asosan mualliflik huquqi orqali ta'minlanadi. Shunga ko'ra, dastur kodini himoya qilish uchun mualliflik huquqi tez va qulay vosita hisoblanadi – chunki patent olish ko'p vaqt va resurs talab qilsa, mualliflik huquqi avtomatik vujudga kelib, nisbatan oson tatbiq etiladi.

Boshqa tomondan, kompyuter dasturlarini tijorat siri (nou-xau) rejimida ham muhofaza qilish mumkin. Agar dastur kodi oshkor etilmasa va maxfiy saqlansa, muallif (yoki egasi) tijorat siri to'g'risidagi qonunlar himoyasidan foydalanishi mumkin. Ko'plab dastur ishlab chiquvchilar manba kodini sir tutib, foydalanuvchilarga faqat obyekt kod (ijro fayllari) shaklida dastur yetkazib, aynan shunday himoyani qo'llaydi. Bunday holatda, dastur kodi uchinchisi shaxs tomonidan ruxsatsiz qo'lga kiritilib oshkor etilsa, bu nou-xau huquqining buzilishi sifatida baholanadi. Biroq, agar dastur bozorda erkin tarqatilsa, uning kodi (hech bo'lmasa, tarjima qilingan obyekt kodi) keng ommaga ma'lum bo'ladi, va u holda mualliflik huquqi asosiy himoya chorasiga aylanadi. Shu sababli, mualliflik huquqi kompyuter dasturlarini muhofaza qilishning eng asosiy va universal shaklidir; patent va tijorat siri esa qo'shimcha yoki muqobil himoya shakllari sifatida ayrim sharoitlarda qo'llanishi mumkin.

Kompyuter dasturlarini huquqiy himoyalashning yana bir amaliy jihati – mualliflik huquqi egasini aniqlash va huquqlarni boshqarishdir. Umumiy qoida bo'yicha dastur muallifi uni yaratgan jismoniy shaxs (yoki shaxslar guruhi) hisoblanadi. Biroq ko'p hollarda dasturlar jamoa bo'lib yoki mehnat shartnomasi asosida yaratiladi. Shu sababli qonunchilikda dastur yaratuvchisi va huquq egasining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalar mavjud. Masalan, Yevropa Ittifoqining 1991-yil 14-mayda qabul qilingan "Kompyuter dasturlarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi maxsus Direktivasi (91/250/YeEC) hamda qator davlatlar (jumladan, O'zbekiston) qonunchiligida xodim tomonidan xizmat vazifasini bajarish tartibida yaratilgan dastur bo'yicha barcha mulkiy huquqlar ish beruvchiga o'tishi belgilangan (agar mehnat yoki buyurtma shartnomasida boshqacha shart ko'zda tutilmagan bo'lsa). Ya'ni, agar dasturchi korxona yoki muassasa topshirig'i bilan dastur yozgan bo'lsa, ushbu dasturga nisbatan mualliflik huquqining mulkiy qismi avtomatik ravishda ish beruvchiga tegishli bo'ladi. Bu qoida dasturlar sohasidagi korxona manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, intellektual mehnat natijasidan tijorat maqsadlarida foydalanishni yengillashtiradi. Albatta, bunday holatda ham mualliflikning shaxsiy huquqlari (dastur muallifi sifatida nomi qayd etilishi va



h.k.) dasturchi-shaxsda saqlanib qoladi, faqat mulkiy daromad olish huquqi ish beruvchiga o'tadi.

Xulosa

Yuqoridagi prinsiplardan ko'rinadiki, kompyuter dasturlarini muhofaza qilish tizimi asosan mualliflik huquqining umumiy qoidalariga tayanadi, shu bilan birga ushbu obyektning o'ziga xosligidan kelib chiqadigan ayrim maxsus qoidalarni ham o'z ichiga oladi. Dasturlar ijod mahsuli sifatida e'tirof etilib, ularga mualliflik huquqining to'liq spektri tatbiq etiladi: muallifning shaxsiy huquqlaridan tortib mulkiy huquqlarigacha. Ular avtomatik himoya ostida bo'lib, hududiy va muddati chegaralangan xarakterga ega tarzda muhofaza qilinadi. Dasturlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan, ayni vaqtda funksional-texnik g'oyalarning erkinligi prinsipi ta'minlanadi – kodning ifodasigina himoyalaniib, algoritmik yechimlar ochiq qoladi. Qo'shimcha ravishda, dasturlarni patent yoki nou-xau orqali muhofaza qilish imkoniyati cheklangan tarzda mavjud bo'lsa-da, amaliy jihatdan mualliflik huquqi ularni himoyalashning eng samarali va keng qo'llaniladigan vositasi bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: 1) dastur mualliflik huquqi obyekti sifatida himoyalaniadi (ijodiy asar deb e'tirof etiladi); 2) huquq avtomatik tarzda vujudga keladi va muallifga butun dunyo miqyosida e'tirof etiladi (xalqaro konvensiyalar orqali); 3) himoya muallifga eksklyuziv (mutlaq) huquqlarni beradi va har qanday ruxsatsiz foydalanishni taqiqlaydi; 4) himoya muddati cheklangan bo'lib, muddat tugagach asar jamoat mulkiga o'tadi; 5) huquqiy himoya faqat asarning ifoda shakliga taalluqli bo'lib, uning ostidagi g'oyalarni qamrab olmaydi; 6) xizmat vazifasini bajarish davomida yaratilgan dasturlar bo'yicha mulkiy huquqlar maxsus tartibda ish beruvchiga o'tishi mumkin; 7) dasturlarni muhofaza qilishda zaruratga ko'ra patent huquqi va tijorat siri kabi institutlar bilan uyg'unlikda qo'llanilishi mumkin, lekin asosiy himoya usuli mualliflik huquqi hisoblanadi.

